

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BALANS AKTIVLARI VA SAMARADORLIGI TAHLILI “O‘ZTRADE” AJ MISOLIDA

Sodiqov Suxrobjon Sanjar o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Xorijiy stajirovka va professor-o‘qituvchilar bilan ishlash bo‘limi menejeri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda balans aktivlarining ahamiyati hamda ulardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda “O‘ZTRADE” aksiyadorlik jamiyati misolida korxonaning uzoq muddatli va joriy aktivlari tarkibi, dinamikasi hamda ularning ishlab chiqarish samaradorligi va rentabelligiga ta‘siri o‘rganilgan. Moliyaviy hisobotlar asosida aktivlarning o‘sish tendensiyalari, ularning aylanish tezligi, yaroqlilik darajasi va likvidlik ko‘rsatkichlari tahlil etilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, asosiy vositalar hajmining ortishi korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirgan bo‘lsa-da, joriy aktivlar hajmidagi qisqarish likvidlik darajasiga ma‘lum bosim ko‘rsatgan. Maqolada aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va korxona balans tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *balans aktivlari, moliyaviy tahlil, aktivlar samaradorligi, likvidlik, rentabellik, “O‘ZTRADE” AJ.*

Kirish:

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning²⁸ moddiy-texnik bazasi va ishlab chiqarish quvvatlari uning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi hamda umumiy faoliyati samaradorligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, asosiy fondlar bilan ta‘minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish salohiyatiga bevosita ta‘sir qiladi. Shu nuqtayi nazardan “O‘ZTRADE” AJ faoliyatida asosiy fondlar holatini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Korxona tarkibida mavjud bo‘lgan asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan, uzoq muddat foydalaniladigan va bosqichma-bosqich amortizatsiya qilinadigan vositalardir. Bular sanoat uskunalari, transport vositalari, ishlab chiqarish binolari, kompyuter texnikalari, mehnat qurollari va boshqa doimiy foydalaniladigan vositalarni o‘z ichiga oladi. “O‘ZTRADE” AJ ning so‘nggi yillardagi moliyaviy hisobotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, korxona o‘zining asosiy fondlarini bosqichma-bosqich yangilab, modernizatsiya qilishga intilmoqda.

Korxonaning asosiy fondlar bilan ta‘minlanganlik darajasi, ya‘ni asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymati ishchilar soniga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot

²⁸ Earley, C. E. (2015). Data analytics in auditing: Opportunities and challenges. Business Horizons, 58(5), 493–500.

hajmiga nisbatan hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich "fond bilan ta'minlanganlik darajasi" deb yuritiladi. "O'ZTRADE" AJ da bu ko'rsatkich o'rtacha darajada bo'lib, ba'zi yillarda o'sish dinamikasi kuzatilgan. Bu esa, o'z navbatida, korxonada texnik qayta jihozlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Asosiy fondlar samaradorligi esa ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining asosiy fondlar qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich "asosiy fondlarning fond qaytimi" deb ataladi. "O'ZTRADE" AJ da fond qaytimi ko'rsatkichi yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Bu holat ishlab chiqarish jarayonining takomillashayotgani, ish unumdorligi oshayotgani va asosiy fondlardan oqilona foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, asosiy fondlarning eskirish darajasi va ularni modernizatsiya qilish darajasi ham muhim tahliliy ko'rsatkichlar hisoblanadi. "O'ZTRADE" AJ da eskirgan jihozlar bosqichma-bosqich zamonaviylari bilan almashtirilmoqda. Buning natijasida, fondlarning texnik darajasi oshmoqda, energiya tejamkorligi ta'minlanmoqda va ishlab chiqarish tannarxi kamaymoqda.

Yagona texnika siyosatini o'tkazish hamda modernizatsiyani amalga oshirishda, zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy qilishda, investitsiyalar, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tarmoqga keng jalb etishda paxta tozalash korxonalariga, yog' zavodlariga, paxta terminallariga ko'mak berishda mazkur konsepsiyaning ahamiyati yanada ortadi.

Asosiy fondlar-bu korxonaning ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat (odatda bir yildan ortiq) foydalaniladigan, qiymati esa muayyan miqdordan yuqori bo'lgan moddiy aktivlaridir. Ular qiymat jihatidan korxonaga jalb qilingan kapital, ya'ni uzoq muddatli investitsiya sifatida qaraladi. Moddiy jihatdan esa asosiy fondlar tarkibiga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, turli xil texnologik uskunalar, mashina va mexanizmlar, transport vositalari, ishlab chiqarish inventarlari hamda boshqa uzoq muddatli foydalaniladigan vositalar kiradi. Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, ularning qiymati va holati korxonaning moliyaviy barqarorligi va faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qisim:


"O'ZTRADE" AJ ning moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalangan holda korxonaning uzoq muddatli aktivlarni tahlil qilamiz.


Uzoq muddatli aktivlarning tarkibi, ularning tuzilishini o'rganish bilan bir qatorda dinamik o'zgarishlariga ham baho berib boriladi va ular asosida korxonada asosiy vositalarning yillar bo'yicha mutloq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida esa korxonaning asosiy vositalari tarkibiga, tuzilishiga va dinamikasiga baho berish mumkin bo'ladi.(2.1-jadval)

2.1-jadval.**“O‘ZTRADE” AJ ning uzoq muddatli aktivlarni tarkibini tahlili²⁹**

Ko‘rsatkichlar	2023-yil boshi		2023-yil oxiri		farqi	
	So‘ma (M.S)	salmog‘i (%)	so‘ma (M.S)	salmog‘i (%)	so‘ma (M.S)	salmog‘i (%)
Balans aktivi jami, Jumladan:	137 301 043	100	114 828 860	100	-22472183	–
1. Uzoq muddatli aktivlar. Undan:	62036998	45	76359826	66	14322828	21
1.1. Asosiy vositalar	2060017	1,5	16382845	14	14322828	12
1.2.Nomoddiy aktivlar	0		0	0	0	0
1.3.Uzoq muddatli investitsiyalar	59976981	43,5	59976981	52	0	8,5

2.1- jadval bo‘yicha xulosa:**2.2-rasm. “O‘ZTRADE” AJ” ning 2023-yil uzoq muddatli aktivlar taqqoslanishi³⁰**²⁹ Muallif ishlanmasi.³⁰ Muallif ishlanmasi.



2.3-rasm. 2023-yil oxiri uchun uzoq muddarli aktivlar tarkibi.³¹

2023-yil davomida “O‘ZTRADE” AJ moliyaviy holatini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlar ichida uzoq muddatli aktivlar tarkibi sezilarli o‘zgarishlarga uchragan. Jadval va grafik ma’lumotlarga asoslangan holda, bu o‘zgarishlar korxonaning investitsiya faoliyati, ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanishi va asosiy fondlar bilan ta’minlanish darajasining oshganligini ko‘rsatadi.

Yil boshida balans aktivlari umumiy hajmi 137,3 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, yil oxirida bu ko‘rsatkich 114,8 milliard so‘mga qisqargan. Bu 22,4 milliard so‘mlik yoki 16,4% kamayishni anglatadi. Biroq bu kamayish umumiy aktivlar tarkibida sifatli o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini istisno etmaydi. Aksincha, uzoq muddatli aktivlar hajmi 62 milliard so‘mdan 76,3 milliard so‘mga oshib, 14,3 milliard so‘mlik o‘sishga erishilgan. Bu esa, korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga e’tibor qaratganini bildiradi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibida asosiy vositalar eng sezilarli o‘sishni ko‘rsatgan bo‘lib, 2023-yil boshida 2,06 milliard so‘m bo‘lgan bu ko‘rsatkich yil oxiriga kelib 16,38 milliard so‘mga yetgan. Ya’ni, 14,32 milliard so‘mlik yoki 696% dan ortiq o‘sish yuz bergan. Bunday katta o‘sish ko‘rsatkichlari odatda ishlab chiqarish vositalariga yoki asosiy fondlarga yangi investitsiyalar yo‘naltirilganini anglatadi. Asosiy vositalarning bunday tez sur’atda oshishi korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashi, xizmat ko‘rsatish sifati va mahsulot hajmining ortishiga olib keladi.

Uzoq muddatli investitsiyalar esa yil davomida o‘z miqdorini o‘zgartirmay, 59,97 milliard so‘m miqdorida saqlanib qolgan. Bu holat investitsiyalarning barqarorligini va strategik sodiqlikni ko‘rsatadi. Ya’ni, “O‘ZTRADE” AJ mavjud investitsion

³¹ Muallif ishlanmasi.

loyihalarni davom ettirib, ularni yangi aktivlar bilan birlashtirgan holda rivojlantirishga intilgan.

Pie diagramma orqali uzoq muddatli aktivlarning tarkibini ko'radigan bo'lsak, 2023-yil oxirida asosiy vositalar umumiy uzoq muddatli aktivlarning 21,5 foizini, uzoq muddatli investitsiyalar esa 78,5 foizini tashkil etgan. Bu korxona aktivlarining katta qismi investitsiyalarga yo'naltirilganini bildiradi, ya'ni moliyaviy strategiyaning markazida investitsiyaviy barqarorlik turgan.

Shu bilan birga, uzoq muddatli aktivlar umumiy balans aktivlariga nisbatan ulushi 2023-yil boshida 45% bo'lgan bo'lsa, yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 66% ga yetgan. Ya'ni, korxona aktivlarining katta qismi uzoq muddatli resurslar bilan ta'minlangan, bu esa moliyaviy barqarorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, "O'ZTRADE" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil yakunlari bo'yicha uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi ko'rsatkichlari tahlili, korxonaning asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish darajasi ijobiy tomonga o'zgarganini ko'rsatadi. Jumladan, asosiy fondlar hajmining oshishi ishlab chiqarish jarayonlarini barqaror yuritish, mavjud quvvatlardan to'liq foydalanish hamda xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur moddiy-texnika bazaning mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar bo'yicha barqarorlikning saqlanib qolganligi, korxonaning moliyaviy siyosati izchil va samarali olib borilayotganini tasdiqlaydi. Bu holat esa, o'z navbatida, kapital qo'yilmalarning xavfsizligi va rentabelligini ta'minlash, investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Mazkur o'zgarishlar va ijobiy ko'rsatkichlar "O'ZTRADE" AJ tomonidan qabul qilingan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini anglatadi. Shu orqali korxona nafaqat mavjud salohiyatni to'liq ishga solishga, balki istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishga, bozordagi mavqeini mustahkamlashga va iqtisodiy barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan muhim bosqichlarni bosib o'tmoqda.

2.4-jadval.

"O'ZTRADE" AJ asosiy vositalarining texnik holati tahlili. ³²

Asosiy vositalar	Boshlang'ich qiymati, ming so'm	Eskirish qiymati, ming so'm	Qoldiq qiymati, ming so'm	Eskirish darajasi, %	Yaroqlilik darajasi, %
1	2	3	4	5	6
1.O'tgan yili	2573559	513542	2060017	20	80

³² Muallif ishlanmasi.

2.Hisobot yili	17118690	735845	16382845	4	96
3.Farqi, (+,-)	14545131	222303	14322828	-16	16

2.4- jadval bo'yicha xulosa:

2023-yil uchun "O'ZTRADE" AJ asosiy vositalarining texnik holatini tahlil qilish ushbu vositalarning iqtisodiy qiymati, yaroqlilik darajasi, eskirish holati va bu ko'rsatkichlardagi yillik o'zgarishlarga asoslangan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonaning asosiy vositalari jiddiy ravishda yangilangan, bu esa texnik bazaning mustahkamlanishini va ishlab chiqarish quvvatlarining oshganligini bildiradi.

O'tgan yilda asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati 25 735 59 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yili yakunida bu ko'rsatkich 171 186 90 ming so'mga yetgan. Bu 145 451 31 ming so'mlik o'sishni anglatadi, ya'ni 5,5 martadan ortiq oshgan. Bunday keskin o'sish ishlab chiqarish uchun yangi texnikalar, uskuna va binolar xarid qilinganligini bildiradi. Bu esa korxonaning texnik qayta jihozlanish jarayoniga katta e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi.

Eskirish qiymati ham sezilarli darajada oshgan: o'tgan yilda bu ko'rsatkich 513 542 ming so'm bo'lgan bo'lsa, hisobot yili oxirida 735 845 ming so'mni tashkil qilgan. Farq 222 303 ming so'mga teng. Biroq bu holat umumiy manfiy tafsirga ega emas. Chunki eskirish qiymatining o'sishi bilan birga, boshlang'ich qiymat ko'rsatkichi yanada katta hajmda ortgan. Shu sababli eskirish darajasi pasaygan: o'tgan yilda 20% bo'lgan eskirish darajasi hisobot yili oxiriga kelib atigi 4% ni tashkil etgan. Bu esa asosiy vositalarning yangilanishi, yangi texnik vositalarning kiritilishi, foydalanishdagi uskunalarining texnik xizmat ko'rsatishdan o'tkazilishi va eskilarining almashtirilganini bildiradi.

Qoldiq qiymat bo'yicha ham sezilarli ijobiy dinamika kuzatilgan. O'tgan yilda asosiy vositalarning qoldiq qiymati 2 060 017 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 16 382 845 ming so'mga yetgan. Bu esa 14 322 828 ming so'mlik farqni tashkil qiladi. Qoldiq qiymatdagi bu o'sish asosiy fondlarning joriy amortizatsiyalardan kam eskirgani, ularning iqtisodiy samaradorligi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Yaroqlilik darajasi ham yuqori o'zgarishni ko'rsatgan bo'lib, o'tgan yilda 80% bo'lgan ko'rsatkich, hisobot yilida 96% ga yetgan. Bu esa korxona foydalanayotgan asosiy vositalarning katta qismi texnik jihatdan yaroqli, zamonaviy va foydali ekanligini bildiradi. 16% ga oshgan yaroqlilik darajasi asosiy vositalarning samaradorligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, "O'ZTRADE" AJ asosiy vositalarining texnik holati bo'yicha tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, korxona 2023-yilda texnik qayta qurollanish, eskirgan uskunalarini yangilash, ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash borasida izchil ish olib borgan. Bu holat uzoq muddatli aktivlar strukturasi bilan uyg'un bo'lib,

korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Asosiy vositalarning yangilanishi hamda yaroqlilik darajasining oshishi korxona mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa "O'ZTRADE" AJ ning bozor talablariga moslashuvi va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga intilayotganidan dalolat beradi.

2.5-jadval.

"O'ZTRADE" AJ da asosiy vositalar samaradorligi tahlil.³³

Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati ming so'm (Avo')	Sof foyda ming so'm (Sf)
1	2
922 143 100	53526

$R_a = \frac{Sf}{Avo'}$ - asosiy vositalarni samardorligi (rentabilligi) shu formula bilan hisoblandi:

$$R_a(31.12.2023) = \frac{53526}{922\ 143\ 100} = 5,8$$

2.5- jadval bo'yicha xulosa:

Tashkilotning asosiy vositalaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda ularning o'rtacha yillik qiymati (Avo') va hisobot davridagi sof foyda (Sf) asosiy mezon sifatida olinadi. Ushbu jadvalga ko'ra, "O'ZTRADE" AJning 2023-yil 31-dekabr holatiga ko'ra asosiy vositalarining o'rtacha qiymati 922 143 100 ming so'mni tashkil etgan. Shunga nisbatan hisoblangan sof foyda miqdori esa 53 526 ming so'm bo'lgan. Asosiy vositalarning rentabelligi yuqoridagi formula yordamida aniqlangan. Bu ko'rsatkich shuni anglatadiki, "O'ZTRADE" AJ har 100 so'mlik asosiy vositaga 5.8 so'm sof foyda ishlab topgan. Mazkur raqamdan kelib chiqilsa, bu daraja o'rtacha samaradorlik darajasidan pastroq bo'lishi mumkin. Chunki umumiy investitsiyalangan mablag'ning qaytimi nisbatan sust kechmoqda.

Bu natija quyidagi holatlarning natijasi bo'lishi mumkin:

Asosiy vositalarning haddan tashqari katta hajmda mavjudligi, ammo ularning barchasi to'liq ishga solinmayotgan bo'lishi;

Foydalanilayotgan vositalarning eskirish darajasi past bo'lsa-da, ulardan yetarlicha samarali foydalanilmayotgani;

Tashkilotning umumiy rentabellik darajasi past bo'lishi yoki xarajatlar nisbatan yuqori bo'lishi mumkin.

Shuningdek, avvalgi tahlil (2.4-jadval) asosida qaralganda, hisobot yilida asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi 80% dan 96% ga oshgan. Bu ijobiy o'zgarish, ya'ni

³³ Muallif ishlanmasi.

texnik jihatdan vositalarning ishlash holati yaxshilanganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ularning moliyaviy jihatdan qaytimi hali ham yetarli darajada emasligini anglatadi.

Xulosa va takliflar:

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida ularni optimallashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu orqali, ayniqsa, mavjud vositalarning rentabellik darajasini oshirish, ya'ni ular yordamida ko'proq iqtisodiy foyda olish imkoniyatlari kengayadi. Asosiy fondlardan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanish korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, samaradorligi past bo'lgan, ya'ni iqtisodiy jihatdan eskirgan yoki texnik imkoniyatlari hozirgi talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni aniqlab, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish yoki butunlay yangilariga almashtirish zarur. Bu esa ishlab chiqarish quvvatini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va xizmat ko'rsatish darajasini yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, korxona tomonidan amalga oshirilayotgan uzoq muddatli investitsiyalarni tahlil qilish orqali ularning rentabelligi, ya'ni daromad keltirish salohiyati puxta o'rganilishi lozim.

2.6-jadval

“O‘ZTRADE” AJ ning joriy aktivlarni tarkibini tahlili.³⁴

Ko'rsatkichlar	2023 yil boshi		2023 yil oxiri		Farki(+,-)	
	so' ma (m.s.)	salmog' i %	so' ma (m.s.)	salmog' i %	so' ma (m.s.)	salmog' i %
Joriy aktivlar. Undan:	75264045	55	38469034	34	-36795011	-21
Tovar-moddiy zaxiralar	5552	0,004	3108	0,003	-2444	-0,001
Debitorlar	67678511	49,456	35982126	31,802	-31696385	-17,65
Pul mablag'lari	6797389	4,967	684198	0,605	-6113191	-4,36
Kiska muddatli investitsiya	60000	0,044	60000	0,053	0	0,009


2.6- jadval bo'yicha xulosa:

2023-yil mobaynida “O‘ZTRADE” AJ ning joriy aktivlari tarkibi sezilarli o'zgarishlarga uchragan bo'lib, bu korxonaning moliyaviy holati va likvidlilik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, yil boshida

³⁴ Muallif ishlanmasi.

korxonaning umumiy joriy aktivlari 75 264 045 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, yil oxiriga kelib bu koʻrsatkich 38 469 034 ming soʻmgacha kamaygan. Bu esa 36 795 011 ming soʻm yoki 21 foizga yaqin kamayishni anglatadi. Ushbu keskin pasayish, ayniqsa, korxonaning aylanuvchi mablagʻlaridan foydalanish samaradorligiga taʼsir qilgan boʻlishi mumkin.

Eng katta oʻzgarish “Debitorlar” boʻlimida kuzatildi. Yil boshida 67 678 511 ming soʻmni tashkil etgan debitor qarzlari yil oxirida 35 982 126 ming soʻmga tushgan. Bu 31 696 385 ming soʻmlik yoki 17,65 foizlik kamayishni anglatadi. Bunday holat, bir tomondan, korxonaning qarzдорlardan undirish siyosatini kuchaytirganligini bildirishi mumkin.



2.7-rasm. “OʻZTRADE” AJ ning 2023-yildagi joriy aktivlari tahlili.³⁵

Boshqa tomondan, bu sotuvlar hajmida yoki xizmatlar koʻrsatish hajmida kamayish boʻlishi ehtimolini ham koʻrsatadi. Debitorlik qarzlarning kamayishi korxona uchun ijobiy holat boʻlishi mumkin, chunki bu pul oqimining yaxshilanishi va aylanma mablagʻlarning real pulga aylanishini bildiradi.

“Tovar-moddiy zaxiralar” bandi boʻyicha ham kamayish qayd etilgan. Yil boshida 5552 ming soʻmni tashkil etgan zaxiralar yil yakunida 3108 ming soʻmga tushgan, bu esa 2444 ming soʻmlik yoki 0,001 foizlik salmoqli kamayishni anglatadi. Bunday kamayish, ehtimol, zaxiralar aylanishining jadallashganini yoki ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish jarayonida zaxiralarni tejab-tergab ishlatish holatini aks ettiradi. Shu bilan birga, bu holat korxonaning ishlab chiqarish zaxiralarini kamaytirish strategiyasini tanlaganligini koʻrsatadi, bu esa zaxiralar saqlash xarajatlarini qisqartirishi mumkin.

Pul mablagʻlari ham sezilarli darajada qisqargan: yil boshida 6 797 389 ming soʻm boʻlgan pul mablagʻlari yil oxiriga kelib atigi 684 198 ming soʻmni tashkil etgan. Bu esa 6 113 191 ming soʻmlik yoki 4,36 foizlik salmoqli kamayishni bildiradi. Pul mablagʻlarining keskin kamayishi moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi holat boʻlishi mumkin. Bu holat korxonaning oʻz vaqtida qarzlarni toʻlash imkoniyatini cheklashi, operatsion faoliyatda uzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli,

³⁵ Muallif ishlanmasi.

korxona naqd pul oqimini yaxshilash va pul mablag'larini boshqarish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishi zarur.

Qisqa muddatli investitsiyalar bandida esa o'zgarish kuzatilmadi. 2023-yil boshida ham, oxirida ham ushbu ko'rsatkich 60 000 ming so'mni tashkil etgan. Bu investitsiyalarning barqaror saqlanayotganini anglatadi. Bunday holat, ehtimol, korxona qisqa muddatli investitsiyalardan daromad olishni maqsad qilganini ko'rsatadi. Ushbu sarmoyalarning saqlanib qolishi korxonaning investitsion siyosati doirasida barqarorlikni saqlab qolishga intilganini bildiradi.

Jami joriy aktivlardagi umumiy kamayishning asosiy sababchisi debitorlar va pul mablag'laridagi pasayish bo'ldi. Bu esa korxona likvidligi va qisqa muddatli moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, korxona nafaqat joriy aktivlarini ushlab qolish, balki ularni samarali boshqarish choralari ham ko'rishi lozim. "O'ZTRADE" AJ joriy aktivlarining 2023-yil davomida sezilarli darajada kamaygani korxonaning moliyaviy holatini baholashda jiddiy e'tibor talab qiluvchi jihat hisoblanadi. Debitor qarzlarning va naqd pul mablag'larining kamayishi, bir tomondan, ichki boshqaruvni takomillashtirishni talab qilsa, boshqa tomondan, investitsiyalarni barqaror saqlab qolish ijobiy holat sifatida qaraladi. Korxona rahbariyati ushbu o'zgarishlarni chuqur tahlil qilgan holda, kelajakda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va rentabellikni oshirishga qaratilgan choralarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'laxodjayeva M.M., Ilhomov Sh.I. Xodjaeva M.X. va boshqalar. Audit.Darslik.II-jild. T.: "IQTISODIYOT". 2018 y.-221 b
2. Moliyaviy tahlil. Darslik. / B.A.Xasanov, M.Y.Raximov, Z.A.Muqumov, A.I.Aliqulov, A.B.Jumanova, N.SH.Xajimuratov, R.B.Xasanova; – T.: "Iqtisodiyot", 2020. – 736 b
3. Raximov M.Y. va boshqalar. Iqtisodiyot subektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2020.- 213 b
4. Bakaybaeva A.S. O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo'llari. I.f.f.d. diss. avtoreferati. –T.: TMI nashriyoti 2020-226 b
5. Do'stmuratov R., Fayziev SH., Qo'ziev I., Po'latov G'. Audit. O'quv qo'llanma. II qism. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
6. Bakaybaeva A.S. O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo'llari. I.f.f.d. diss. avtoreferati. –T.: TMI nashriyoti 2020. 58 b.
7. I.N.Qo'ziyev, F.Sh. Ochilov, Audit-2 fanidan darslik, 2024.
8. A.Z.Avlokulov, Xalqaro audit fanidan darslik, 2024.

9. A.Z.Avlokulov, F.Sh. Ochilov, Ichki audit fanidan o'quv qo'llanma, 2024.
10. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida ichki auditning uslubiy ta'minotini rivojlantirish. Xalqaro moliya va hisob. №1. 2018. 1-7 b.
11. Ushakov A.A. "Buxgalterskiy uchët i audit effektivnosti ispolzovaniya sredstv v munisipalnih uchrejdeniyax zdravooxraneniya", avtore., k.e.n., 2012. 14 s.
12. ACCA Audit and Assurance (AA) Study text, Kaplan Publishing, Kaplan Financial Limited, 2024
13. AAA Advanced Audit and Assurance – Study text, Kaplan Publishing UK.
14. AXS 330 "Auditorning aniqlangan risklarga javoblari", 15.12.2009-yil.
15. AXS 500 "Audit dalillari", 15.12.2009-yil.
16. MBSK, "Audit bo'yicha ko'rsatmalar"
17. AXS-200, "Mustaqil auditorning Xalqaro Audit tekshiruvini o'tkazishda belgilangan umumiy maqsadlari"
18. AXS 520 "Analitik protseduralar", 15.12.2009-yil.
19. World Bank. 2024. Digital Progress and Trends Report 2023. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2049-6. License: Creative Commons Attribution CC BY
20. Earley, C. E. (2015). Data analytics in auditing: Opportunities and challenges. Business Horizons, 58(5), 493–500.
21. KPMG. (2020). Clarity on audit: The role of AI and data analytics.
22. The 14th International Symposium on Frontiers in Ambient and Mobile Systems (FAMS 2024) April 23-25, 2024, Hasselt, Belgium, "The Impact Of Big Data In Auditing". Hasyimah Isaa, Ulaganathan Subramanian.
23. Cao, M., Chychyla, R., & Stewart, T. (2015). Big Data analytics in financial statement audits. Accounting Horizons, 29(2), 423–429.
24. Fedetova E.S. Vnutrenniy audit kak instrumet effektivnogo upravleniya predpriyatiem tema dissertasii i avtoreferat po VAK 08.00.12, Saratov, 2005. S-191
25. Yachmennikova T.A. Vnutrenniy audit v sisteme upravleniya predpriyatiem tema dissertasii i avtoreferat po VAK 08.00.12, Saratov. 2006. S-206.